

«MA'QULLANGAN»
“Madad Invest Bank” ATB
Kengashining
2023 yil «__» _____ dagi
— - sonli yig'ilish bayonnomasi
Kengash raisi

_____ M.Sh.Yuldashev

«TASDIQLANGAN»
“Madad Invest Bank” ATB
Boshqaruvining
2023 yil «10 » mart dagi
01/19 - sonli bayonnomasi
Boshqaruv Raisi

_____ O.Y.Ashiraliyev



“Madad Invest Bank” ATB tomonidan tadbirkorlik
sub'yektlariga qayta tiklanuvchi va muqobil energiya loyihalari
uchun “Green Energy” nomli kredit berish to'g'risidagi

NIZOM

Farg'ona shaxar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ATB 'MADAD INVEST BANK'
METODOLOGIYA BO'LIMI
281 RAQAM BILAN RO'YXATGA OLINDI
2023 yil. “10” mart
Imzo Cenz

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi, "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonunlari va amaldagi boshqa qonunlar hamda "Madad Invest Bank" ATBda xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash" Tartibiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bank tomonidan Tadbirkorlik sub'yektlariga qayta tiklanuvchi va muqobil energiya loyihalari uchun kredit ajratish davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar majmuini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **Bank** - "Madad Invest Bank" ATBning Amaliyot boshqarmasi va hududiy tarkibiy bo'linmalari;

- **Tadbirkorlik sub'yektlari** - O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan barcha turdag'i xo'jalik yurituvchi subyektlar;

- **"Green Energy"** - "Madad Invest Bank" ATB tomonidan tadbirkorlik sub'yektlariga qayta tiklanuvchi va muqobil energiya loyihalari uchun ajratiladigan kreditlar.

3. Tadbirkorlik sub'yektlariga ajratiladigan "Green Energy" nomli kreditlar qaytarishlilik, to'lovililik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish tamoyillari asosida beriladi.

4. "Green Energy" krediti obyekti O'zbekiston Respublikasi hududidan sotib olinganda, milliy valyuta - so'mda, xorijdan xarid qilinganda AQSH Dollari yoki boshqa xalqaro muomaladagi xorijiy valyutada, naqdsiz shaklda - pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

5. "Green Energy" krediti bitta qarz oluvchiga uning kreditga layoqatliligi va garov mulklari bahosini inobatga olgan holda eng ko'pi bilan bazaviy hisoblash miqdorining 2 000.0 barobarigacha ajratiladi.

6. "Green Energy" krediti faqat O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga beriladi.

7. "Green Energy" krediti qarz oluvchilarga shartnoma asosida 60 oygacha bo'lgan muddatga, 12 oygacha imtiyozli davr asosida ajratiladi. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun mazkur turdag'i kreditlar 24 oygacha, loyihaning qoplanish muddatiga ko'ra 6 oygacha imtiyozli davr bilan beriladi.

8. "Green Energy" krediti quyidagi maqsadlarda ajratiladi:

- Quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarini sotish, o'rnatish yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun;

- Tadbirkorlik sub'yektlariga quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalardan o'zining xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida sotib olish uchun.

9. "Green Energy" krediti quyidagi asosiy shartlar asosida ajratiladi:

- Qarz oluvchi yaxshi kredit tarixiga ega bo'lishi, xususan qarz oluvchining boshqa banklar (yoki mikrokredit tashkilotlari)dan joriy muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi, qarz oluvchining oxirgi 12 oy davomida 90 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari, oxirgi 5 yil davomida sud jarayonidagi, balansdan tashqari moddalarga o'tkazilgan qarzdorliklari bo'lmasligi lozim;

- Mijozning kartoteka-2 bo'yicha qarzdorliklari bo'lmasligi lozim;

- Mijozning talab qilib olinguncha asosiy depozit hisob raqami Bankda ochilgan bo'lishi lozim;
- Kredit hisobiga sotib olinayotgan quyosh panellari bo'yicha O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining muvofiqlik sertifikati bo'lishi shart;
- Kredit ta'minoti eng kamida kreditning 125 foizini, Bankka aloqador shaxslar uchun esa 130 foizini tashkil etishi lozim;
- Kredit miqdori quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalarni sotib olishga ajratiladigan kreditlarda loyiha qiymatining 100 foizidan, aylanma mablag'lari uchun ajratiladigan kreditlarda mazkur loyiha qiymatining 70 foizidan oshmasligi lozim.

10. Yashil moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ko'zda tutilgan xorijiy moliya institutlari mablag'lari hisobidan loyihamalar moliyalashtirilayotgan holatlarda, mijoz va uning loyihasi xorijiy moliya instituti kredit liniya shartlari doirasida o'rganiladi.

11. "Green Energy" kreditidan foydalanganlik uchun yillik foiz stavkasi milliy valyutada ajratiladigan kreditlar uchun - 24.9 foiz, xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar uchun - 12.0 foiz. Foizlar kredit berilgan kundan boshlab, kreditning asosiy qarzi so'ndirilguncha bo'lgan davr uchun hisoblanadi.

12. "Green Energy" kreditini alohida mijozlar uchun alohida tartibda ajratish, mazkur Nizomda ko'rsatilgan shartlardan boshqacha tartibni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

II. "Green Energy" kreditini rasmiylashtirish tartibi

13. Mijoz tomonidan Bankning mazkur turdag'i kreditini olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- Krediti buyurtmanomasi, ya'ni mijozning kredit olish to'g'risidagi arizasi;
- Vakolatli boshqaruv organining kredit olish uchun roziligi (yuridik shaxlar uchun);
- Loyiha bo'yicha biznes reja, bunda olinayotgan kreditdan foydalanish aniq sarf-xarajatlari va kelgusi pul oqimlarining tahlili ko'rsatilgan bo'lishi lozim;
- Ta'minot bilan bog'liq hujjatlar;
- Mahsulot (tovar yoki xizmat) yetkazib beruvchi va mijoz o'rtaida tuzilgan oldi-sotdi shartnoma nusxasi.

Bundan tashqari, qarz oluvchi tadbirkorlik sub'yekti nomidan Bank hujjatlariga imzo qo'yish vakolatiga ega bo'lgan shaxs o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim etishi lozim, Bank mas'ul hodimi tomonidan hujjatdan nusxa olinadi, unga "*asliga to'g'ri*" deb ustxat yozib, imzosi bilan tasdiqlaydi, nusxa kredit yig'ma jildiga tikiladi, xujjatning asli esa mijozga qaytariladi.

14. Mijozning moliyaviy hisobotlari Bank tomonidan kredit byurolari yoki boshqa ishonchli manbalardan mijoz roziligi asosida olinishi yoki mijozning o'zi tomonidan o'zining muxri bilan tasdiqlangan holda taqdim qilinishi mumkin. Ushbu hisobotlar mijoz tomonidan taqdim etilganda, uning haqiqiyligi Bank tomonidan interaktiv imkoniyatlardan foydalangan holda tekshirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur hisobotlar mijozning kreditga layoqtatlilagini tahlil qilishda foydalaniadi.

15. Zarurat tug'ilganda, Bank tomonidan mazkur kredit loyihasi doirasida qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

16. Tadbirkorlik sub'yeqtari mazkur turdag'i kreditlarni olish uchun hujjatlarni elektron shaklda ham taqdim etishlari mumkin. Elektron shaklda hujjat taqdim etish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan tadbirkorlik sub'yeqtari tomonidan kredit olish tezkorlig'i va qulayligini ta'minlash maqsadida kredit hujjatlarini masofadan turib va interaktiv rasmiylashtirish yo'li bilan namunaviy shakllar asosida Bankning interaktiv bank xizmatlari veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

17. Mijoz arizasi Bankka kelib tushgach, Bank mas'ul hodimi mijozning buyurtmanomasiga asosan uning kredit tarixini kredit byurosi ma'lumotlariga asosan o'rGANADI va mijozning kredit tarixi, o'rtacha oylik/yillik daromadi, mavjud aktivlari va majburiyatlarini hisobga olgan holda uning kreditga layoqatiligidini aniqlaydi.

18. Kreditni qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida qarz oluvchi ta'minot sifatida Bankka quyidagi garov turini taqdim etishi zarur:

- Likvidli mol-mulklar (O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi Qonuniga asosan ta'qiqlanmagan ko'char va ko'chmas mulklar) garovi.

19. Taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida Bankning Kredit bo'limi mas'ul hodimi ushbu loyiha doirasida kredit ajratish maqsadga muvofiq yoki maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida yozma xulosa tayyorlaydi.

20. Kredit komissiyasi kredit berish yuzasidan 3 bank ish kunidan kechiktirmagan holda, qaror qabul qiladi. Bank Kredit komissiyasi arizani rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, qaror qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan muddatda mijozga uni berishning rad etish sabablari ko'rsatilgan yozma xabarnoma jo'natadi.

21. Kredit komissiyasining kredit ajratish to'g'risida ijobiyligi qarori qabul qilingan taqdirda, Bank va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tegishli tartibda imzolanadi.

22. Kredit mablag'lari alohida ssuda hisobvarag'ini ochish hamda hisobvarag'dan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasiga asosan naqd pulsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

23. Kredit komissiya/qo'mitasi raisi va a'zolari kredit hujjatlarining to'g'ri shakkantirilishi va mazkur Nizom talablari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirilishi bo'yicha shaxsan ma'sul hisoblanadi.

24. Kredit ajratilishidan oldin kredit hujjatlari bo'yicha quyudagi talablar bajarilishi lozim:

- Kredit yig'ma jildi hujjatlari to'liqligi;

- Kredit komissiya/qo'mitasi qarori bilan kredit shartnomasining mazmuni o'rtasida muvofiqlik (kredit miqdori, foiz stavkasi, kredit muddati, foydalanish maqsadi, ta'minot va boshqa talablar);

- Barcha shartnomalar (kredit, garov, sug'urta va boshqa shartnomalar)ning amaldagi qonunchilik, mazkur Nizom va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilganligi.

25. Elektron shaklda taqdim etilgan kredit byurtmanomasida xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning nomi, STIRi, mulkchilik shakli, asosiy (agar mavjud bo'lsa qo'shimcha) faoliyat turi, yuridik manzili, kredit maqsadi, miqdori, muddati va ta'minot turi, kredit oluvchining hujjatlari, buyurtmanoma to'ldiruvchiga doir ma'lumotlar (vakolatli shaxsning familiya, ismi, sharifi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatga oid ma'lumotlar, shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, uy manzili, elektron pochta manzili, boshqa aloqa vositalari to'g'risida ma'lumotlar) to'liq ko'rtilgan bo'lishi lozim.

26. Mijoz tomonidan elektron kredit buyurtmanomasiga ilova qilingan mazkur Nizomning 12-13-bandida keltirilgan skaner qilingan kredit hujjatlari bilan birgalikda himoya kodi kiritilib, Bakka yuboriladi.

27. Elektron kredit buyurtmasida ma'lumotlar to'liq ko'rsatilmagan yoki u haqida soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan taqdirda murojaatlar anonim deb hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

28. Kredit ajratilgandan so'ng kredit ustidan kreditlashning tegishli tarmoq bo'limi hodimi tomonidan doimiy monitoring amalga oshiriladi.

29. Kredit monitoring jarayonida kreditning maqsadli ishlatalishi, mijozning to'lov qobiliyati, taqdim etilgan garov mulki holati va kreditdan samarali foydalanish yuzasidan joylarga chiqib o'rjaniladi va monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Tuziladigan monitoring dalolatnomasiga monitoring jarayonining fotosuratlari ilova qilinishi maqsadga muvofiq.

III. Kreditni so'ndirish tartibi

30. Kredit berishda mijozning doimiy yoki olinishi muqarrar bo'lgan daromadlari kreditni qaytarishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'minot kredit qaytarilishining ikkilamchi manbai bo'lib, Bank tomonidan ta'minotga kreditni qoplashning asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim.

31. So'ndirish muddatlari grafik ko'rinishida taqdim etilishi lozim, grafikda pul oqimlarining kelib tushish istiqboliga bog'liq holda kreditni bir necha bosqich bilan so'ndirish ko'zda tutilishi ham mumkin.

32. So'ndirish muddati kelgan va qarz oluvchida pul mablag'lari bo'lмаган taqdirda kredit muddati o'tgan ssudalar hisobvarag'i orqali undiriladi, unga doir muddatlari majburiyatlar esa 2-sonli kartotekaga o'tkaziladi hamda taqvimi navbat tartibida so'ndiriladi. Bunda, foizlar kredit bo'yicha asosiy qarzdan oldin so'ndiriladi.

33. Ajratilgan kredit mablag'lari monitoring jarayonida maqsadsiz sarflanishi aniqlanganda, Bank qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan maqsadsiz ishlatalgan kredit qismini kredit shartnomasida belgilangan tartibda muddatidan oldin undirish huquqiga ega.

34. Qarz oluvchi asosiy qarz va unga doir hisoblab yozilgan foizlarni kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda so'ndirmagan taqdirda Bank O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 280-moddasiga muvofiq sudga murojaat etmasdan, mustaqil ravishda undiruvni garov ashvosiga qaratishga haqlidir.

35. Qarzdor tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda, Bank mazkur qarzlarni qaytarishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yi 4-dekabrdagi 422-sonli Qurori bilan tasdiqlangan "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi"ga muvofiq qarzdorlarning likvidli mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari, transport vositalari, kompyuter hamda korxona va tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga amalga oshirish huquqiga ega.

36. Mijoz kredit to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirmaganda va kredit ta'minoti hisobidan mazkur qarzdorliklarni undirish imkoniyati mavjud bo'lмаган taqdirda, Bank yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirish bo'yicha qonun hujjatlarda belgilangan tartibda choralarни ko'radi. Ushbu holat qarz oluvchi va Bank o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida qayd etilishi shart.

IV. Yakuniy qoidalar

37. Mazkur Nizom bilan belgilangan tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shu jumladan, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari bilan mos kelmagan taqdirda, amaldagi

qonunchilik hujjalarda belgilangan me'yorlar ustun bo'lib, ularga rioya etiladi.

38. Ushbu Nizom tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kiritildi:

Kreditlash departamenti
direktori



A.A.Sotvoldiev

Ma'qullandi:
Boshqaruv raisi



O.Yu.Ashiraliyev

Kelishildi:

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy
hisobot departamenti direktori,
Bosh buxgalter



N.Sh.Mo'ydinov

Yuridik xizmat departamenti direktori



A.M.Hamidov

Ichki nazorat boshqarmasi boshlig'i




O.M.Qodirov

Avtomatlashtirilgan bank
tizimlari boshqarmasi boshlig'i




D.N.Nuraxunov

Amaliyot boshqarmasi boshlig'i



S.A.Rahmatullaev

Metodologiya boshqarmasi boshlig'i



Sh.A.Salaydinova

"TASDIQLAYMAN"
"Madad Invest Bank" ATB
Boshqaruvi raisi
O.Y.Ashiraliev

" " 2023 yil

**«Madad Invest Bank» ATB tomonidan jismoniy shaxslarga «Green Energy» nomli iste'mol
krediti**
PASPORTI

Kredit mahsuloti tasdiqlangan sana	2023 yil __ mart.
Tushunchalar	Yurtimizda eko olamni saqlashni, tabiiy energiya samaradorligini oshirish hamda resurslarni tejash maqsadida ishlab chiqilgan bank kredit mahsuloti.
Kredit mahsuloti nomi	"Green Energy".
Kredit mahsuloti turi	Mikrokredit.
Kredit oluvchilar	O'zbekiston respublikasi rezidenti bo'lган barcha turdag'i tadbirkorlik sub'yektlari
Kredit valyutasi	Milliy hamda xorijiy valyutada.
Kredit ajratish tamoyillari	Maqsadlilik, to'lovlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlilik
Kredit muddati	-Asosiy vosita sotib olish uchun - 60 oygacha; -Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun - 24 oygacha.
Imtiyozli davr	-Asosiy vosita sotib olish uchun - 12 oygacha; -Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun - 6 oygacha.
Kreditning eng ko'p miqdori	Bazaviy hisoblash miqdorining 2 000.0 barobarigacha.
Kredit ajratish shakli	Naqd pulsiz shaklda, oldi-sotdi shartnomasiga asosan pudratchi tashkilotning bank xisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan
Kredit yillik foiz stavkasi	Milliy valyutada - 24.99% Xorijiy valyutada - 12.0 %
Kredit maqsadi	- Quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarini sotish, o'rnatish yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun; - Tadbirkorlik sub'yektlariga quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalardan o'zining xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida sotib olish uchun.
Kredit ta'minoti	Likvidli mol-mulklar (O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi Qonuniga asosan ta'qilganmagan ko'char va ko'chmas mulklar) garovi;
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	- Qarz oluvchi yaxshi kredit tarixiga ega bo'lishi, xususan qarz oluvchining boshqa banklar (yoki mikrokredit tashkilotlari) dan joriy muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi, qarz oluvchining oxirgi 12 oy davomida 90 kundan oshgan muddati o'tgan

	<p>qarzdorliklari, oxirgi 5 yil davomida sud jarayonidagi, balansdan tashqari moddalarga o'tkazilgan qarzdorliklari bo'lmasligi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Mijozning kartoteka-2 bo'yicha qarzdorliklari bo'lmasligi lozim; - Mijozning talab qilib olinguncha asosiy depozit hisob raqami Bankda ochilgan bo'lishi lozim; - Kredit hisobiga sotib olinayotgan quyosh panellari bo'yicha O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining muvofiqlik sertifikati bo'lishi shart; - Kredit ta'minoti eng kamida kreditning 125 foizini, Bankka aloqador shaxslar uchun esa 130 foizini tashkil etishi lozim; - Kredit miqdori quyosh panellari, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalarni sotib olishga ajratiladigan kreditlarda loyiha qiymatining 100 foizidan, aylanma mablag'lar uchun ajratiladigan kreditlarda mazkur loyiha qiymatining 70 foizidan oshmasligi lozim. - Yashil moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ko'zda tutilgan xorijiy moliya institutlari mablag'lari hisobidan loyixalar moliyalashtirilayotgan holatlarda, xorijiy moliya instituti kredit liniya shartlari doirasida o'rganiladi.
Kreditni so'ndirilish tartibi (qaytarish jadvali)	Oddiy yoki annuitet
Taqdim etiladigan xujjatlar	<ul style="list-style-type: none"> - Krediti buyurtmanomasi, ya'ni mijozning kredit olish to'g'risidagi arizasi; - Vakolatli boshqaruva organining kredit olish uchun roziligi (juridik shaxlar uchun); - Loyiha bo'yicha biznes reja, bunda olinayotgan kreditdan foydalanish aniq sarf-xarajatlari va kelgusi pul oqimlarining tahlili ko'rsatilgan bo'lishi lozim; - Ta'minot bilan bog'liq hujjatlar; - Mahsulot (tovar yoki xizmat) yetkazib beruvchi va mijoz o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnoma nusxasi; - Loyiha xususiyatidan kelib chiqib boshqa hujjatlar ham talab etilishi mumkin.
Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati	Barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan vaqtidan boshlab 3 ish kuni davomida.

Kiritildi:

Kreditlash Departamenti
direktori:

A.A.Sotvoldiev